

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN»
XAYRIYA JAMG'ARMASI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Sotuvda erkin narxda

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan № 46-47 (66431-66432) 2003 yil 1 dekabr dushanba

e-mail: ijod@uzpak.uz

SOG'LOM AVLOD - YURT TA'YANCHI



Xalqimiz azal-azaldan bolajon xalq. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek:

«Biz-o'zbeklar hayotimizning, umrimizning mazmunini farzandlarsiz tasavvur etolmaydigan xalqimiz». Binobarin, dunyoga kelib, munosib farzand ko'rish, imorat qurish, nihol ekib, bog' yaratish otabobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan ezgu tilak va qutlug' insoniy burch borki, uning tagzaminida bizdan kelgusida har tomonlama yetuk, bilimdon va sog'lom avlod qoldirish maqsadi yotadi. Shu maqsad yo'lida Prezidentimizning tashabbuslari bilan 1994 yilda «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etildi. Bu ordenga kelajakda sog'lom avlod uchun jonkuyarlik qilayotgan bir qator yurtdoshlarimiz sazovor bo'ldi. Sog'lom, baquvvat yoshlar xalqimizning himoyachisi, yelkadoshi bo'lishlari uchun sportga, san'atga,

madaniyat va she'riyatga ham katta e'tibor berilmoqda. «Sog' tanda sog'lom aql» iborasiga amal qilingan holda bolajonlarimizni sog'lom bo'lishlari uchun viloyatlarda, tumanlarda turli sport



majmualari qurib, ularning ixtiyoriga topshirilmoqda. Yurtimiz maktablari, litseylarida

«Umid nihollari» olimpiada o'yinlarining o'tkazilishi buning yorqin misolidir. Yurtimiz o'quvchilari orasida o'tkazilgan bu musobaqada juda ko'plab yoshlar qatnashib, o'zlarining sport sohasida erishgan yutuqlarini namoyish etdilar va munosib taqdirlandilar. Ular dunyo taniydigan tennischilari Iroda To'laganovani, andijonlik Muhammadqodir Abdullayevni, Lillexamirmerda o'tkazilgan qishki olimpiada o'yinlari chempioni Lina Cheryazovani, Boks bo'yicha uch karra jahon chempioni,

Mehnat shuhrati ordeni sohibi bo'lgan Artur Grigoryanni safdoshu izdoshlari

«Odamzod dunyoda juda ko'p kasbu hunarning egasi bo'lishi mumkin. Quruvchi, dehqon, bog'bon, shoir, olim bo'lib nom qozonish, mol-mulk, boylik orttirishi mumkin. Lekin Olloh taolo insonga ato etgan eng katta boylik, eng ulug'

burch borki, uni dunyodagi hech bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Bu farzand ko'rib, ota bo'lish, ona bo'lish baxtidir. Bu

faqatgina baxtu saodat emas, balki yaratganning oldida, elu yurt oldida juda katta mas'uliyat ham demakdir».

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, har bir oila farzandini oqil, donishmand bo'lib yetishishini istaydi. Shunday ekan, aziz bolalar, siz ham ya'ni a'lo o'qishga, jamoat ishlarida faol qatnashib, yurtimiz ravnaqiga sezilarli xisssa qo'shing, deymiz.

Ozoda
TURSUNBOYEVA
tayyorladi.



«BEMASLAHAT ISH»...

Assalomu alaykum qadrdonim «Tong yulduzi»! Sendan bemaslahat bir ish qilib qo'ydim. Menimcha, senga ma'qul bo'ladi. O'zim she'riyatga, ijodga juda qiziqaman. Ijodimdan namunalar tuman, viloyat, respublika gazetalari tez-tez chop etilib turadi. Maqolalari gazetada chop etilgan ijodkorning holatini juda yaxshi his qilganim bois, maktabimizdagi ijodkor o'g'il-qizlarni jamlab, «Tong yulduzi»ning muxbirlik postini tashkil qildim. Maqola va xabarlarini, she'riy mashqlarini sahifalaringda chop etsang, ularning qanchalar quvonishini ko'z oldimga keltiryapman.



Qosimjon SOLIYEV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
33 - maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari rahbari.

SOVUQ «O'YINCHOQ»

Har yili yangi yil arafasida ko'pchilik tengdoshlarim kabi men ham paqillatadigan o'yinchoqlar sotib olib, o'tgan-ketganning oyoqlari ostiga otib, huzur qilib kulib yurardim. O'tgan yili maktabda kimdir o'zimning oyoqlarim ostiga ham ana shunday paqillatadigan narsani otib yubordi. Kutilmagan shovqindan ketdim, yuragimning tez urib ketganidan

o'zimga kelolmay turdim. Oyoqlarimdagi og'riqni aytmaysizmi? Yurolmay qolganimdan uch kun maktabga ham kelolmadim. Yosh bo'la turib men shunchalik qo'rqib ketdimu keksalarni gapirmasa ham bo'larkan-da. Shu-shu bunday sovuq «o'yinchoq»ni hecham sotib olmaydigan bo'ldim. Sizga ham maslahatim shu, aziz do'stlarim. Keksalarimizning qarg'ishini emas, duosini olaylik.

Dilshod G'OFUROV,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
169 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi.



O'QILGAN KITOB MAKTAB KUTUBHONASIGA

Men tahsil oladigan Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktabda yaxshi bir an'ana bor: Bitiruvchi sinf o'quvchilari maktabimiz kutubxonasi uchun badiiy kitoblarni sovg'a qilib ketadilar. kutubxonamiz yanada boyib

Men ham yaqinda o'zim o'qib To'xtaboyevning «Sariq devni» kitobini kutubxonamizga sovg'a o'qigan, qahramonlari xotiramda bir qolgan bu kitobni uka va singillarim ham o'qishsin-da. Uyda chang bosib yotganidan nima naf, shunday emasmi?

Xo'sh, aziz tengdoshlarim, sizning maktab kutubxonangiz qay ahvolda? Shunday ibratli an'ana sizdarda ham bormi?

Dilrabo YUNUSOVA, 9 - sinf o'quvchisi



Siz ham o'rganing



AYTAR SO'ZNI AYT MINGA

Meni o'z bolasidek ko'rib, issiq bag'riga olgan va boshlang'ich sinfda ta'lim bergan ilk ustozim Zulfiya opa! Maktabda menga ta'lim berayotgan chog'ingizda sizga aytolmagan gaplarim bor. Qanchadan-qancha o'g'il-qizlarni o'qitib, endi qarilik gashtini surib, uyda farzandlaringiz bag'ridasiz. Sizga aytolmagan so'zim: menga harfni o'rgatib, savodli qilib tarbiya qilganingiz uchun mingdan-ming rahmat. Ustoz va shogird quyosh va oyga o'xshaydi. Ustoz-murabbiylar shogirdlar uchun misoli ko'zgudir, shogird o'sha ko'zguga boqib, o'z aksini ko'radi, o'zidagi nuqsonlarni to'g'rilab boradi.

Zulfiya Tilakova! Toshga o'yib yozilgan yozuv o'chmaganidek, 1-ustozimning saboqlari men uchun andoza. Sizdan o'mak olib o'qituvchi bo'lishga jazm etdim. Qalbi daryo o'qituvchilarim, bilim berganingiz uchun rahmat!

Maqsuda QURBONOVA,

Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 7-maktab o'quvchisi.

XAZONLI KUZ

Mana, oltin kuzimizning so'nggi kunlari ham poyoniga yetdi. Etni junjiktiruvchi salqin shamollar, goh-gohida sharros quyib yuboradigan yomg'irlar ham g'animat bo'lib qoldi. Quyosh nurlari yetishmagani uchun xlorofil donachalari to'liq ozuqa ololmay parchalangani bois sariq, qizg'ish tus olgan daraxt yaproqlari borliqni qoplagan. Ularni yoqish aslo mumkin emas.



Yaproqlar yoqilganda ulardagi changlar qo'rg'oshinga aylanar va inson salomatligiga katta zarar yetkazar ekan. Tabiatda hech narsa ortiqcha emas. Mana shu biz keraksiz deb hisoblaydigan xazonlardan ham unumli foydalansa bo'larkan. Ularni yerga ko'msa o'g'it bo'larkan. Ular qish faslida qorlar tagida to'yinsa, hosilimiz mo'l bo'lishi tayin.

Ziyoda MIRZAJONOVA,
Shayxontohur tumanidagi
254 - maktabning
4 - sinf o'quvchisi.

«BUNYODKOR» KLUBI

Xalqimizda shunday gap bor: Kunduzi chiroq yoqsang, kechasi qorong'uda qolasan. Shunday ekan, har birimiz bugungi kunimiz bilan birga ertangi kunimizni ham o'ylashimiz kerak. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, Kelajak bugundan boshlanadi. Yaqinda ko'rkam bino har xil viloyatlardan va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan o'quvchilar bilan to'lib ketdi.

Mavzusi ekologiya muammosi, suvdan oqilona foydalanish va uni keyingi avlodga toza, ozoda holda yetkazib berish 5 ta yo'nalish: Eko foto, Eko teatr, Eko skazka (ertak), Eko tafakkur va Eko jurnalistika bor edi.

Tadbiri Bio Eko jamg'armasi direktori N.Sultonov ochdi.

«Umid yulduzlari» guruhi tabiat qo'shiqlarini ijro etdi.

Har kimning qanchalik bilimga egaligi mana shu festivalda yaqqol namoyon bo'ldi. O'quvchilar o'zlari chizib kelgan plakatlarni, fotosuratlarini og'zaki nutqda tushuntirib berishdi. Suv haqida har xil ertak va spektakllar qo'yib berishdi. Ekran orqali ko'rsatilgan videofilmlarga mavzu, shior tanlash, o'zlari radioga suv, hayot haqidagi ijtimoiy reklama uchun ssenariylar yozish bilan bilim tafakkurlarini charxlashdi.

Eng qiyini xay'at a'zolari guruhlarini baholash bo'ldi. Bio Ekosan guruhi «Faxriy yorliq»larga va sovg'alari bilan o'z o'lklariga yorug' yuz bilan qaytishdi.

Farog'at JABBOROVA,
Xorazm vilyaoti, Urgench shahri,
Sobir Rahimov maktabining 10- «A» sinf o'quvchisi.

MAKTABNI MAQTAGUM

Men Ulug'nor tumanidagi maktabda o'qir edim. Bir kuni gazetada tumanimizdagi 16-maktab internati to'g'risidagi maqolani o'qib qoldim. Shu litseyda o'qish orzusi menga tinchlik bermadi. Lekin litseyga kirib o'qish men o'ylaganchalik oson emas ekan. Imtihonlardan o'tish juda katta tayyorgarlik va bilim talab qilar ekan. «Intilganga tole yor» deganlaridek, qattiq sinovlardan so'ng entikib kutilgan daqiqalar yetib keldi. Orzuimga erishib, litseyda o'qiy boshladim. Bu yerdagi sharoitlar barchamizni qoniqtirardi. Sinf xonalari hozirgi zamon talablariga mos holda jihozlangan. Oshpazlarimiz bir-biridan mazali taomlar tayyorlashadi. Bu natijalarga erishishda litseyimiz direktori I.Qirg'izboyev va ustozlarimizning hissalari katta deb bilaman. Men shunday litseyda ta'lim olayotganimdan faxrlanaman.

Javlon TURG'UNOV,
Andijon viloyati.

O'ZBEKISTON HUR DIYOR

O'zbekiston hur Vatan,
Qalbi to'la nur Vatan.
Ilmu fanning o'chog'i,
Baxtga to'la quchog'i.

Yo'limiz to'g'ri, ravon,
Hayotimiz farovon.
Bizni sevgan hamma vaqt,
Yurtboshimizga rahmat!

Malohat DO'SATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi
18 - o'rta maktabning 6 - «V» sinf o'quvchisi.

KO'SAKCHA

Abdullhay NOSIROV

Kechadan sovuq tushdi. Har kuni saharlab chiqib, paxtazorga zar kokillarini yoyib tashlaydigan quyosh ham bugun chiqmadi. Oftob nurlaridan qochib g'o'zaning eng pasidagi ko'm-ko'k barglar orasiga yashirinib oladigan ko'sakcha izg'iridan junjikib qoldi.

- Voy- voy, juda sovuq qotdim-ku, pichirladi qaltirab ko'sakcha.

- Saxiy quyosh nurlari qayoqqa ketdi. Yozda issiq- issiq nurlarga to'yib olsam bo'larkan-da. Ko'sakcha ko'zlarini ochib, shaldirab, qovjirab qolgan barglar orasidan sekin mo'raladi. Ko'zlariga sovuq izg'irin kelib urildi. Voy...

Quyoshjon qayoqqa ketdiykin-a? Izg'irin yuz ochishimga qo'ymayapti-ku. Nahotki ochilmay shunday so'lib qolsam-a.


Ko'sakchani yumuq ko'zlar orasidan miltir-miltir yosh to'kildi. «Ayb o'zimda. Quyosh porlagan kunlari issiq urmasin, deb soyaga o'zimni urdim. Barglar orasiga yashirindim. Mana endi... Opa- singillarim hammasi shodon ochilib, xirmonga tushdi. Men esa ochilmay... Shundoq sovuqda qotib qoldim.» Bir payt bulutlarni yorib, quyoshning issiq yuzi ko'rindi. «Voy quyoshjon bormisan?..» Ko'sakchani yuziga shodlik yugurdi. Taniga issiq o'tganday bo'ldi. «Tanim biroz yayradi-ya. Sovuqda juda qotib qolgan ekanman-a.» Ko'sakcha ko'zlarini sekin ochib atrofiga qaradi. Quyoshning sahiy nurlaridan tillolanib, erkin- erkin uchayotgan kapalaklarga mahliyo boqdi. Qushlarning sho'x sayrashiga quloq tutdi. Hamma quyoshni olqishlar edi.

- Voy quyoshjon, endi men sendan hech qachon yuzim qorayapti, deb yashirinib olmayman. Yo'q, nurlaringdan yuzim qoraymas ekan, balki oqarib, shodlikdan bag'rim ham toshib ketar ekan.

Shunday deya, ko'sakcha tars- tars yog'rilib ochilib ketdi. Bag'ridan shodlikka o'xshash oppoq paxtalar toshib chiqdi.

«Ha, endi men ham xirmonga tushaman. Opa- singillarim kabi men ham shodlanaman, mehrga aylanaman. Yoig'izlik yomon ekan. Ozgina qoldi-ya, quyoshdan bekinib, sovuqda qotib qolishimga...» Shodon- shodon pichirladi ko'sakcha.

Chanog'iga sig'may mehri jo'shib turgan oppoq paxtani dehqonbuva ko'rib qoldilar-da, asta avaylab uzib, xirmonga qo'shib qo'ydilar.



Yaqinda metroda ketayotib, yonimda o'tirgan bir necha o'smirlarning, o'qishlar ham jonga tegdi-da, har kuni bir xil manzara, biram zerikarliki, deya nolishlari qulog'imga chalinib qoldi. Gap-so'zlaridan ularning turli litsey va kollejlarda tahsil olishlarini bilib oldim. Beixtiyor suhbatlariga qo'shib, axir talabalik davri inson umrining eng

instituti bilan tuzilgan shartnomaga asosan «Ortopedik stomatologiya» bo'limining a'lochi o'quvchilari «Protezlar tayyorlashning ilg'or texnologiyasi» dasturi bo'yicha qo'shimcha tahsil oladilar va institut tomonidan rag'batlantiruvchi stipendiya bilan taqdirlanadilar.

Talabalik oltin davr(mi?)

METRODA KETAYOTIB...

jo'shqin, betakror damlari hisoblanadi. Uni qiziqarli, yodda qolarli, shirin xotiralarga boy qilib o'tkazish o'z qo'lingizda-ku, degim keldi-yu, biroz istihola qildim. Lekin manzilimga yetib borguncha ularning gaplarini mushohada qilib bordim. O'zim tanigan, bilgan o'smirlarning hayot tarzini ko'z oldimga keltirib, haligi bolalar bilan taqqoslab ko'rdim. Shunda dilimda allanechuk qoniqlik tuydim:

Ular O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Elektrotexnika tibbiyot texnikumida tahsil olishadi. Yurtboshimizning: «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart»- degan gaplarini o'ziga shior qilib olgan mazkur bilim dargohida o'quvchilarning puxta bilim olishlari, hunar o'rganishlari, sport bilan muntazam shug'ullanishlari, bo'sh vaqtlarini maroqli, unumli o'tkazishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. 1965 yilda tashkil qilingan texnikumni bugungi kunga qadar 14000 ga yaqin o'g'il-qizlar tamomlab, malakali mutaxassislar bo'lib, turli jabhalarda mehnat qilishyapti. «Ortopedik stomatologiya», «Hamshiralik ishi», «Davolash ishi», «Tibbiyot texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish, tuzatish va o'rgatish» kabi yo'nalishlar bo'yicha tahsil olayotgan 1700 dan ziyod talabaga 6 nafar tibbiyot fanlari nomzodi, 29 nafar oliy toifali va 19 nafar birinchi toifali o'qituvchilar saboq berishadi. Ko'plab o'quv bazalariga ega bilim dargohi xorijiy davlatlar bilan ham hamkorlik qiladi. Koreya Respublikasining Osiyo madaniyati va rivojlantirish



Texnikumda «Kamolot» tashkiloti ish faoliyati ham juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Muntazam ravishda o'tkazib kelinadigan sport musobaqalari, bayram tantanalari, turli bellashuvlarning tashabbuskorlari o'quvchilarning o'zlari ekanligi

quvontiradi kishini. Talabalar biror bayramning kelishini kutib o'tirishmaydi. O'zlari aqlni charxlaydigan, bilimlarini mustahkamlaydigan turli intellektual o'yinlar o'ylab topishadi. Tengdoshlariga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini og'zaki tarzda emas, turli obrazlarga kirib, sahna ko'rinishlarida aks ettirishga harakat qilishadi. Ayniqsa, Sayyora opa Mirzajonova tashkillashtirgan Nodir G'afforov sardorlik qiladigan «Zakovat» klubi a'zolarining bellashuvlarini tengdoshlari maroq bilan tomosha qilishadi. Bir so'z bilan aytganda, nafaqat o'zlarining, balki tengqurlarining ham talabalik - oltin davrlarini zavqlishavqli o'tkazishga intilishadi...

Shoyad, hayotlarining zerikarli kechayotganidan nolib yurgan ayrim yoshlarimiz ulardan ibrat olishsa.

Feruza JALILOVA.

KO'CHADA KETAYOTIB...

Ko'chada ketayotib, bir narsani bosib oldim. Xuddi nonni bosib olgandek his qildim o'zimni. Qarasam, kitobning varag'i ekan. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanining bir necha yirtilgan varag'i g'ijimlanib, tuproqqa qorishib yotardi. Kayfiyatim tushib ketdi. Ularni tekislab, yozuvini o'qishga urinib ko'rdim. «Unutmaysizmi?» degan yozuvni arang o'qidim. Angladimki, bu Kumushning Otabekka xitobi edi. Bu misralarni o'qib, qanchalik ta'sirlanganim,

O'qishdagi uqish



Kumushning odobu ahloqiga, sabr-bardoshiga qoyil qolgandim. Shunday kitobni hissizlarcha yirtib, tashlab yuborgan odamlardan xafa bo'lib ketdim.

Bozorlarda ham shunday manzaraning guvohi bo'lamiz. Qurt, pista sotib o'tirgan sotuvchi ayollar oldida nodir adabiyotimiz durdonalari bo'lmish kitoblar o'zlarining shum taqdirlarini kutib yotishadi.

Yaqinda kutubxonadan Pirmiqul Qodirovning

«Avlodlar dovoni» kitobini oldim. Kitobning har 20-30 bet oralig'idagi buklangan joylarni ko'rib ranjib ketdim. Menimcha, ayvalgi kitobxon kelgan yerini shunday belgilab qo'ygan bo'lsa kerak.

Nazarimda, ustozlarimiz, ota-onalarimiz biz yoshlarni kitobxonlikka da'vat qilibgina qolmay, ularni avaylab- asrashga ham o'rgatishlari lozim. Gap faqat o'qishda emas, balki qanday o'qishda va uqishda ekanligini ham tushuntirib borishsa, foydadan holi bo'lmasdi.

Durdona ALIMOVA,

Toshkent shahridagi

234 - maktab o'quvchisi.

GREK TILI UCHUH GRETSIYADAN

Men Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyining 2-bosqichida tahsil olaman. Litseyimiz tashkil qilinganiga uncha ko'p vaqt bo'lmasa-da, ko'plab ibratli ishlar amalga oshirildi. Uning nizomida iqtidorli o'quvchilarning eksternat imtihonlari orqali muddatidan ilgari o'qishni tugatishlari belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunda litseyimizda ta'lim olayotgan 600 ga yaqin o'quvchilarga



45 dan ziyod tajribali o'qituvchilar, fan nomzodlari, dotsentlar saboq berib kelishyapti. Ularning puxta bilim olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan. Jumladan, turli o'lehash asboblari, har xil qurilmalarga ega amaliyot xonalari, lingafonlar bilan jihozlangan ingliz tili xonasi, informatika fanidan multimediya, kodoskop va monitorlar o'quvchilar ixtiyorida.

Bu ishlarning bariga litseyimiz direktori - fizika-matematika fanlari nomzodi

B.D. Yo'ldoshev bosh-qoshlar.

Litseyimizda hech bir o'quvchi bo'sh qolmaydi. «Balli qizlar!», «Til-ma'naviyat ko'zgusi», «Alisher Navoiy - g'azaliyot mulkingning sultoni» kabi ko'rik-tanlovlarda qatnashadilar, «Qiziqarli matematika», «Sport o'yinlari», «Kompyuterni o'rganamiz» kabi to'garaklarda shug'ullanadilar.

Litseyimizga chet ellik mehmonlarning tez-tez kelib turishlari ham yaxshi an'anaga aylangan. «Tinchlik» korpusidan vakillar kelib, bizga ingliz tilini o'rgatishsa, Gretsiya

Faxr

respublikasidan kelgan o'qituvchilar grek tilini o'rgatishyapti. Ular bizga ikki yil mobaynida til o'rgatib, grek tilini mukammal o'rganib olgan o'quvchilarni Gretsiyaga malaka oshirish uchun olib ketishar ekan. Puxta bilim olishimiz uchun yaratilgan yana bir imkoniyatdan behad mamnunmiz.

Xullas, shunday bilim dargohida o'qiyotganimdan faxrlanaman.

Umida SHODIYEVA,

O'zMU qoshidagi

Sobir Rahimov akademik litseyi

205 - guruh o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

Yon qo'shnimizning mollar dastidan egilib, mayishib yotgan sim to'ri ustidan o'tib, yuklarimni oldimu, izimga qaytdim. O'tgan haftada qo'shni hududiga yaqinlashish mahol edi. O't-o'lanlar odam bo'yi o'sib, ichkariga kirish qo'rqinchliroq sanalardi. Aftidan qorovul kechagina pichan o'rgan, atrof-tevarak ochilib qolgan, binoyidakkina dala-hovli tusiga kirgan edi. Ammo bir necha yillardan buyon chalaligicha turgan imorat uchchala qo'shni orasida atlasga tushgan bo'z yamoqday g'ashga tegardi. Munkayib, mung'ayib turgan bino yerto'lasi-yu, atroflari ilon-chayonlarga, boshqa har xil jonivorlarga oshyon bo'lgan edi. Hozir bu yerlardan bexavotir o'tib, o'choq boshidagi uzun kursini ko'tardim-da, yaqindagina hosildan bo'shagan oq o'rik tagiga o'rnatdim. Odatda shu yerda - daraxt va imorat soyasida nafas rostlanadi. Kichik xonamiz oynasi ham shu tomonga ochiladi. Yo'ldan o'tadigan, darvozaga yaqinlashgan har kimsa bu yerdan yaqqol ko'zga tashlanadi. Kiraverishda, chap yonda yoqimsizroq - to'siq o'rnatilmagan qo'shni-shoirning bedavo «koshonasi».

Uzunchoq kursida picha o'tirgach, qorin g'amiga kirishdim. Yerda alvon rangga bo'yalib pishgan, go'shtdor ikki yirik pomidordan uzib chiqdim-da, xaltadan bitta tandir non oldim. Yoqimlilikini qarang, qorin dardiga malham bo'ldi-qo'ydi. Endi esa kerak paytda juda zoriqtiradigan uyquga o'xshash bir nimalar elita boshladi. Essiz-a, uy ochiq bo'lganida, salqin xonaga kirardimu, rohat og'ushiga cho'zildim-a...

Uyqu bosh ko'targanda o'rin tanlamasligini aniq his etayapman. Tizzamdan pastini yerga uzatib, uzun o'tirg'ichga cho'zildim. Chap bilagim boshimga yostiq. Ko'zimni yumar-yummas ajib manzaralar ichra sayrga tushdim. Sochlarimni mayin shabada siypalaydi. O't-o'langa boy, ilon izi yo'ldan, tog' cho'qqilari sari ko'tarilib borayapman. Bir mahal ro'paramdan kattakon mahluq yovvoyi itmi-yey, bo'rimi-yey, paydo bo'ldi-yu, yo'limdan qoch, deganday tishlarini takillatdi, ko'zlarini chaqchaytirdi. Menga tashlanguday vajohati bor. «Ship-ship», «shitir-shitir» «voovv...uvv...».

Yovvoyi jonzot tashlanish uchun yarim emaklab, go'yo kuch yig'ib,

tobora yaqinlashib kelayapti: «Shitir-shitir...». «Voovv...uvv...».

Qochish uchun jon holatda o'girildimu, yanada dahshatliroq

OQTOSH

(Hikoya)

manzaraga ko'zim tushdi: o'rqa tomon tubsiz jarlikka aylanibdi. Nima qilay: sakraymi yo mahluqqa tashlanaymi? Yana o'girildim. Mahluq bilan oramiz bir necha odimgina: «shitir-shitir», «voovv...uvv...».

Qo'limni xalqa qilib, men ham tashlanishga shaylandimu, oyoqlarim qaltiraydi, bilaklarimda jon yo'q...

-Vov-vov, vov-vov...

Beixtiyor ko'zim ochilib ketdi. Tepamda o'rik daraxtining ko'm-ko'k barglari qilt etmaydi. Terga botaman. Daf'atan qayerda yotganimni anglay olmadim. Boshimni chap yonga burdim.

Burdimu, hushim boshimdan uchib, qotdim- qoldim.

-Vov-vuvv...

Mendan atigi besh qadamcha narida haligina yonimdan ketgan Oqtosh: Nima qilarini

bilmaganday dovdirab kelayapti, goho menga qaragancha uvlab qo'yadi. Oldida esa kamida bir qulochcha cho'zilgan, boshini adl ko'targancha men tomon o'rmalayotgan ulkan ILON! Butun vujudim jimirlab, go'yo jonim tanamni tark etayotganday sezdimu, bor kuchimni to'plab, qaddimni rostladim. Lekin himoyalani uchun qo'limda ham, yonimda ham na biror qurol, hatto kattaroq toshu kaltak ham yo'q... Qochish...

Shu fikr miyamdan o'tishi bilanoq, voajab, ilon to'satdan yo'lini o'zgartirdi - o'ng yonidagi xandaqqa, o't-o'lan orasiga burildi. Bir vaqlar loy xandaq edi, endi atrofdan go'ng terib kelib, o'shanga

tashlardik. Suv quyilmagani bois o't-o'lanlar yarim qovjirab yotardi. Hozir o'shalar jonimga oro kirdi, shekilli. Ehtimol, qo'zg'alanimdan ilon

hayiqqandir. Qo'zg'alishimga esa Oqtosh... endi u o'z vazifasini o'tab bo'lgan singari orqa oyoqlariga tayangancha sarg'ish ko'zlarini menga beozor tikib o'tiribdi. Yovvoyinamo hisoblab yurgan bu itning antiqa ishi meni batamom lol qoldirgan edi. Endi unga qanday javob qaytarishni bilolmay, dovdirab turardim. Rosti, yoniga borib, erkalatishni, o'ynatishni, qornini yaxshilab to'yg'azishni istardim. Shuning ta'sirida:

-Oqtosh, senga rahmat,- degancha xaltadan bitta tandir non olib, to'rtga bo'ldim-da, itning yoniga qo'ydim. Ajabki, boshqa hamjinslariga o'xshab, u ochko'zlik bilan nonga tashlanmadi. Balki, minnatdorchiligimga nisbatan o'rnidan turib, dumini likillatdi, tovlanib-tovlanib menga erkalandi. So'ng nonlarni tishlagancha,

darvozaxona yaqiniga olib bordi-da, shoshilmay yeyishga tushdi.

- Q o r n i n g to'qroqmi yoki issiq ovqat berishimni kutdingmi?-dedim itning hafsalasiz harakatini kuzatib. Oqtosh bir qarab qo'ydi-da, yana non yeyishda davom etdi. Shoshma, hali seni kechqurun yaxshilab boqaman.

Shu topda biz asosiy egasi deb sanaydigan Erkin Malikovni esladim.

-Erkin senga yaxshi ovqatlar berib o'rgatgan-da,- deyishim bilan Oqtosh boshini ko'tarib, avval egasining dala hovlisi tomonga, so'ng yo'l sari qaradi. Miyig'imda kulib qo'ydim: «Erkinning o'rnini bosish oson

Muhammad SALOM

emasga o'xshaydi».

Darhaqiqat, Erkin juda rahmdil, yemishimizda qurt-qumursqa-yu, parranda-darrandalarning haqqi bor, deb hisoblaydigan, ularga ham nasiba qoldiradigan, boz ustiga ishchan, g'ayratli va erinmaydigan odam. Shu it och qolmadimikan degan andishada qish kunlarida ham undan xabar olib ketadi, ovqatlantiradi, yana zaxiraga ul-bullar qoldiradi. Uning bu ishini ko'rib:

-Oqtoshni qayoqdan topib kelgansiz? -deb so'raganmiz. Avval buni ko'rgan emasmiz-ku?

- U bizni o'zi topib keldi. O'zi paydo bo'ldi,-degan Erkin. -Qarasam, aqliga o'xshaydi. Yoqimtoygina. Tilinga kelib qoldi: «Oqtosh» desam, erkalandi. Shu-shu inoqmiz.

- Biror kishi keltirib bergandir, balki...

-Yo'q, yo'q, rost gap. Ehtimol shu atrofda kimnikidir bo'lganu, egasi o'lganmi yoki ko'chib ketganmi, egasiz qolgan. Nima bo'lganida ham, Olloh taoloning o'zi buni bizga yetkazgan. Juda ziyrak, aqlli,-degancha itning boshini siypalaydi, «Oqto-osh» deb, yumshoq ovozda allalagan kabi erkalaydi. Oqtosh esa chalqancha yotgancha, oyoqlarini ko'tarib, unga suykanadi, o'ynaydi. Shu topda yo'ldan biror begona kishi, mol yoki hamjinsi o'tib qolsa, Oqtosh o'rnidan sakrab turadi-yu, vovullagancha begonaga otiladi. Quloqni qomatga keltirib, uni quvishga kirishadi. Ayniqsa, tunda unga bas kelish qiyin. Qaysi xonadonda qo'noq bo'lsa, o'sha atrofni bekamu ko'st qo'riqlaydi, xonadon egalarini erkalatib kutib oladi, ortidan lo'killab yurib, ma'yus kuzatadi.

Unga faqat men befarqroq qaraganimni esladim-da:

-Endi qadringga yetaman, Oqtosh, darvozaxonada senga alohida yaloq qo'yaman, - dedim. Supada turgan eski jomni o'sha yoqqa olib borib qo'ydim. Bu paytda Oqtosh qo'shni yeri orqali o'tib, egasining yo'liga chiqqan edi. Izimga qaytar ekanman, o'ng yonidagi xandaqqa, qovjiroq o't-o'lanlarga ko'zim tushdi-yu, yana etim jimirlab ketdi: nahotki haligi ilon shu yerda poylab yotibdi. Qo'shni yeridagi pichanlar o'rtilganda ilonlar bu yoqqa ko'chib o'tdimikan? Qudalarimiz yoki kelinimiz ulardan

(Davomi bor...)

Tengdoshlarning ijodi

YULDUZLAR

Osmon to'la yulduzlar,
Porlar, charaqlar.
Oy bag'rida quvnashib,
O'ynar, yaraqlar.
Oydir ularga ona,
Mehr ulashar.
Yulduzlar atrofida,
Go'yo quvlashar.
Qanday go'zal manzara,
Kuzatganmisiz?
Oy va yulduzchalarga,
Gap otganmisiz?

SAVOL

-Ayting-chi menga ona,
Kimni derlar dugona?
Tili tiliga monand,
Dili diliga payvand,
Qizlarni der dugona.
-Yana aytingchi ona,
Kimni derlar begona?
Dunyoqarashi mutloq,
Biri-biridan yiroq,
Ularni der begona.

Nazokat MIRHABIBOVA,
Toshkent shahar,
Hamza tumanidagi
Amir Temur nomli
155 - maktabning
4 - «A» sinf o'quvchisi.

Bugungi kunda sud hokimiyatining yangi tuzilmalarini yaratish ishlari olib borilmoqda. Barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi. Huquqiy



uchun birinchi sud AQShda 1899 yilda, Evropada esa bunday sud 1904 yilda Irlandiyada tashkil

nobop oila bag'riga qaytaradi yoki sud qaroridan so'ng koloniyalarga jo'natilgan bolaning jinoyatchilar orasida qayta tarbiyalanib chiqishi, yana retsediv jinoyatlarni sodir

tarbiyalanish, ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan uchrashish, o'z fikrini ifoda etish, ism, ota ismi va familiya olish, ularni o'zgartirish mumkin. Ishda ishtirok

YUVENAL ADLIYA

davlatning mustahkamlanib borishi sud islohotini chuqurlashtirishni, odil sudlov tizimini demokratlashtirishni taqozo qildi.

Hozirda O'zbekiston yuvenal adliya milliy tizimi qaror topishi bosqichida turibdi. Yuvenal adliya sohasidagi xalqaro standartlar milliy



qonunchilikka joriy etilmoqda. Biroq yuvenal adliya sohasida, shuningdek, uni amalga oshirish b o r a s i d a k o ' p l a b m u a m m o l a r mavjud. Afsuski « y u v e n a l a d l i y a » terminining o'zi biz uchun hali yangilik.

Inson huquqlariga rioya qilish bolalar huquqlariga rioya qilishdan boshlanadi. Yuvenal adliya (inglizcha) «voyaga yetmaganlar uchun odil sudlov» ma'nosini anglatadi. Chet elda yuvenal sudlov jahonning AQSH, Kanada, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Italiya kabi mamlakatlarda mavjud va ishlamoqda. Voyaga yetmaganlar

etildi.

Huquqiy negiz sifatida yuvenal adliya umumiy odil sudlov tarmog'i, odil sudlovning o'ziga xos tizimi sifatida, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sud yuvenal adliyaning markaziy asosi sifatida bo'lmog'i lozim.

Fuqarolik jamiyati qurayotgan mahallimizda birinchi galda tarbiyasi og'ir bolalar, hayotning noto'g'ri so'qmoqlarini o'zi bilgan va bilmagan holda tanlayotgan yoshlarimizga e'tiborni qaratish kerak. Bu ish bilan birinchi galda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi shug'ullanishi lozim. Lekin bunday markazlar mexanizmi hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Masalan: bola surunkasiga uydin qochib ketadi, ketma-ket mayda huquqbuzarliklar sodir etadi. Oilasi, ota-onasining o'ziga hali tarbiya yetishmaydi. Shunda militsiya xodimi tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, shahar hokimligi qoshidagi voyaga yetmaganlar bilan ishlash hay'atiga taqdim etadi. Aslini olganda, bola yoshiga qarab maxsus maktab-internat yoki kasb-hunar kollejiga yuborilishi kerak. Lekin bunday ta'lim muassasalari yo'q. Natijada militsiya xodimi bolani koyib-koyib yana o'sha

etilishiga olib keladi.

Fransiyada bolalar koloniyalari yo'q, ularni maxsus pedagog va psixolog yo'nalishida tayorlangan mutaxassislar nazorat qiladi va tarbiyalaydi. Iki maxsus oilalar tarbiyasiga beriladi.

Bugungi kunda hokimliklar huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, Ichki ishlar tizimidagi voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi inspeksiya, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa davlat mahkamalaridagi tegishli tarkibiy tuzilmalarning maqsad hamda vazifalari aynan yuvenal adliya oldiga qo'yilgan vazifalarga bir muncha mos keladi.

Bola sud oldida o'z huquqlarini himoya qila olishi, o'z fikrlarini bildirishi lozim. O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga oid hujjatlar, qaror va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim. Oila kodeksida bolalarning shaxsiy huquqlariga doir «Bolaning nasl-nasabini belgilash», «Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari», ya'ni, bolaning oilada yashash va

etuvchilarning biri tomonidan shikoyat berilganida, bir yoki bir necha shaxslarning manfaatlarini ko'zlab protest keltirilganida, yuqori-turuvchi sud faqat bu shikoyat va protestlar bilan cheklanib qolmasdan, ishning barcha holatlarini tekshirishi zarur.

Bola huquqlari buzilganda voyaga yetmaganlar o'z huquqlarini himoya qila olish mexanizmini ishlab chiqish kerak. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va ichki i s h l a r organlaridagi o'smirlar masalalarini hal etishdagi m a v j u d tarqoqlikka b a r h a m berish va y u v e n a l a d l i y a elementlarini milliy qonunchilikka hamda huquqiy amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish orqali muvaffaqiyatli yo'llarni izlash va takomillashtirish lozim.

Ra'no BADALBOYEVA,
Nizomiy nomidagi



TOG' QIZI

QO'SHIQLARI

Umida-tog' qizi. Uning tog' tonglaridek beg'ubor hislari tog' gullaridek go'zal she'rlar bo'lib qog'ozga to'kiladi. Yurt mehrini qalbiga tuyib, kelajak sari umid, ishonch bilan odimlayotgan bu tengdoshingizga orzularing hamisha qanoting bo'lsin, degim keladi.

Olqor DAMIN,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
«Na'matak» she'riy to'garagi rahbari.

O'ZBEGIMNING AYOLI

Malohatli jamoli,
Baxtdan so'zlar kamoli,
Boshda g'ijim ro'moli,
O'zbekimning ayoli.

Azonlarda non yopgan,
Dalada ketmon chopgan,
Farzandla baxtin topgan,
O'zbekimning ayoli.

Umida MO'MINOVA,
Samarqand viloyati, Ishtihon tumanidagi
79-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

TO'RTLILIK

Lolazorli chamanda,
Yalang-oyoqda yurdim.
Qog'oz ila qalamda,
Lola hayotim qurdim.

Tengdoshlaring ijodi

O'RGANMAGUNCHA

Tengdoshingiz Hulkanar Navoiy shahridagi 17-maktabning 7-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Rasm chizish, she'rlar yozish bu tinib-tinchimas jajji qizaloqning jonu-dili. Ona tabiat qo'yniga sayohat qilish, turli o'simliklar olami uning juda mehribon. Uning hukmingizga odimlayotgan



ORZU

Olamunchaq -tumorim,
Asrar mudom ko'zlardan.
Ota-ona xumorim,
Ehtiyotlar «so'zlardan».
Yolg'izgina qizchaman,
Rassom bo'lay ilayo.
Niyatlari bir chaman,
Umr bersin xudoyo.

TINIB-TINCHIMAYMAN

uchun mo'jizadir. Jonivorlarga esa Mudom ko'p o'qisam, izlansam she'rlari va g'oyat nafis did bilan chizilgan rasmlarini havola qilarkanmiz, sizlar bilan birgalikda kelajak sari shaxdam Hulkaroyga oq yo'l tilaymiz!

MEHR

Men kuchukni sevaman,
U vafoning timsoli,
Unga mehrim tuyaman,
Sevinchlarim misoli.
Kuzatadi yo'limga,
Asraydi u yotlardan.
Boqib turar qo'limga,
Asli-kuchli zotlardan.

Hulkanar SAFAROVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi
17-maktabning 7-sinf o'quvchisi.



Ertalab o'g'limni bog'chaga olib ketayotib, oyijon, bog'chaga bormayman, siz bilan uyda qolaman, deb tinmay xarxasha qilayotgan qizaloqni uchratdim.

-Yana shunday gaplarni aytsang, seni «detdom»ga topshirib yuboraman,- derdi onasi uni siltalab. O'sha paytda ona-bolaning gaplariga unchalik e'tibor bermagandim. Chunki «detdom»lar haqida hech qanday tasavvurga ega emasdim-da...

jamg'armasi raisi Xushnoza Akbarovna olib borgan kiyim-kechaklarini tarqatganda, quvonganlaridan qarsak chalib yuborishdi. Bu ularning birinchi bor sovg'a olishlari emas ekan.

Keyin navbat she'rxonlikka berildi.

Ayni kunlarda «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» qabul qilinganligining 14 yilligiga bag'ishlab «Har bir farzandga mehr-e'tibor» shiori ostida «Kamolot» YOIH, «Bolalar» jamg'armasi tashabbusi bilan joylarda ko'plab tadbirlar o'tkazilyapti. YAqinda Chirchiq shahridagi 14-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bolalar nashrlari - «Gulxan», «G'uncha» jurnallari hamda «Tong yulduzi» gazetasi ijodiy xodimlari bilan uchrashdilar.

MENGA DUNYO KERAKMAS

-Men Gulchehra Qobilovaman. Hozir 6-sinfda o'qiyapman. Botanika, geografiya, matematika fanlariga qiziqaman. Katta bo'lganimda chevar bo'lishni orzu qilaman. Chevar bo'lsam o'zimga chiroyli kiyimlar tikaman. Kollejda o'qish niyatim bor. Mohir tikuvchi bo'lib ketsam, Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan uka va singillarimga ham albatta chiroyli ko'ylaklar tikib beraman...



-Mening ismim Murod. 8-maktabning 6-sinfida o'qiyman. Mening orzuim «Tong yulduzi» gazetasi orqali shahar, viloyatlardagi tengdoshlarim bilan do'stlashish. Ular bilan do'stlik maktublari yozishni xohlayman. Manzilimizni gazetangizda e'lon qilsangiz. Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Alisher Navoiy shoh ko'chasi, 205-uy, 14-Mehribonlik uyi. Egamberdiyev Murodga deb yozishsin.

Chirchiqdagi
Mehribonlik uyiga kirib borar ekanman, negadir shu voqea yodimga tushdi. Xonaga to'plangan tarbiyalanuvchilarni ko'rib, yuragim ezildi. Ularning lablarida tabassum bo'lgani bilan, ko'zlari ma'yus boqardi. Bolalar bizni ko'rib juda quvonib ketishdi. Ayniqsa, Toshkent viloyati «Bolalar»

-Men Alisher To'raqulovman. 8-maktabning 9-sinfida o'qiyman. Futbol o'ynashni yaxshi ko'raman. Mirjalol Qosimov, Baxtiyor Ashuratovlarga havasim keladi. Ularning o'yinlarini ko'rib, qoyil qolaman. Yana boshlang'ichda bizni o'qitgan ustozim Muhabbat opamlarni juda-juda yaxshi ko'raman. Ular menda adabiyotga havas uyg'otganlar...

«G'uncha» jurnali mas'ul kotibi, bolalar shoiri Rauf Tolibning she'rlarini tarbiyalanuvchilar diqqat bilan tinglashdi. Chunki oralarida adabiyot ixlosmandlari ham talaygina ekan. Ulardan ayrimlarini suhbatga tortdik:

Ko'zlaridagi umid uchqunlari qarida allaqanday mung yashirin bu o'g'il-qizlarning orzulari meni quvontirdi. Mehribonlik uyi direktori Saodat opa Razzoqova ham bolalarni

o'z farzandlaridek ko'rar ekanlar:

-Ochig'ini aytsam, o'z farzandlarimga ham ko'p vaqt ajrata olmayman. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining barchasi qadrdonlarimdek aziz bo'lib qolganlar. Ularsiz men hayotni tasavvur qilolmayman. Bolalarning ko'ngli juda nozik. Shuning uchun ham ularning ko'ngillariga qarash, ularni ranjitmaslik, quvonchlariga ham, qayg'ulariga ham sherik bo'lish bizning vazifamiz. Ular bizning kelajagimiz.

Ha, albatta, kelajak avlodning baxtli, har tomonlama to'kis bo'lib yetishishlarida kattalar ozmi-ko'pmi mas'uldirlar.

Gulyuz VALIYEVA.

-Men Sevara Hayitmetova, 10-maktabning 5-sinf o'quvchisiman. She'r yozishni juda yaxshi ko'raman. «Ona» nomli she'rimni Mehribonlik uyidagi dugonalarim ham yodlab olishgan. Hozir sizga shu she'rimni aytib beraman.

Egimdagim ko'ylagim,
Mening orzu tilagim.
Oh, onajon, deganda,
Eziladi yuragim.

Boqqa kirgim keladi,
Gullar terгим keladi.
Uzoqdagi onamni,
Har kun ko'rgim keladi.

Tunlar tushimda ko'rib,
Onamni sog'inaman,
Boray, desam yo'l uzoq,
Bolalar uyidaman.

Katta bo'lganimda jurnalist bo'laman,-deya so'zini davom ettirdi Sevara.- Baxtli bolaligimiz haqida maqolalar yozaman. Mehribonlik uyimiz bolalari juda ahil. Aka-uka, opa-singildek bo'lib ketganmiz. Ovqatlar juda mazali. Bo'sh vaqlarimizda kino-teatrlarga olib borishadi. Ba'zan dam olish kunlari xolamlarnikiga borsam, bu yerdagi dugonalarimni sog'inib qolaman.

BUNI SEN BILISHING KERAK

1989-yilda Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilindi.
1992 yil Konvensiyani O'zbekiston Respublikasi tan oldi.

3-modda:

Faroyonliging uchun zarur hisoblangan himoya va g'amxo'rlik bilan ta'minlanish huquqiga egasan.

6-modda:

Yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga egasan.

7-modda:

Ism bilan atalish, fuqarolikka, millatiga ega bo'lish, o'z otanonangni bilish huquqiga egasan.

12,13,14- moddalar:

O'z qarashlaringni, fikringni erkin ifodalash, vijdon va din erkinligi huquqiga egasan.

19-modda:

Ota -ona yoki har qanday boshqa shaxs tomonidan haqoratlanish, qo'pol muomalada bo'lishdan himoyalaniş huquqiga egasan.

20-21-moddalar:

Oila g'amxo'rligidan mahrum bo'lganda davlat tomonidan ko'rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egasan.

24-modda:

Zarur tibbiy yordam ko'rsatish va sog'ligingni saqlash huquqiga egasan.

26-modda:

Ijtimoiy ta'minot ne'matlaridan, ijtimoiy sug'urtadan foydalanish huquqiga egasan.

28-modda:

Ilm olish huquqiga egasan.

31-modda:

Dam olish va bo'sh vaqtingni maroqli o'tkazish huquqiga egasan.

32-modda:

Iqtisodiy ekspluatatsiyadan hamda sog'liging uchun xavf-xatar yetkazish mumkin bo'lgan har qanday ishlardan himoya qilinish huquqiga egasan.

33,34-modda:

Giyohvandlik moddalardan g'ayriqonuniy ravishda iste'mol

qilishdan, shaxvoniy maqsadlarda foydalanish shakllaridan himoya qilinish huquqiga egasan.

37-modda:

Qiynoqlarga yoki boshqa shafqatsizlarcha jazoga duchor etilmaslik huquqiga egasan.

38-modda:

Qurolli mojarolarning ta'siridan himoyalaniş huquqiga egasan.

Bolalar konvensiyasidan

MAQSADGA YETAKLOVCHI YO'L

Har bir insonning qalbida bir olam orzulari bo'ladi. Ularga yetaklovchi yo'lni turli ko'chalardan qidirishadi... Mening ham orzularim bir olam. Tunov kuni dadam: - Qizim, ulg'aygach kim bo'lmoqchisan, -deb so'rab qoldilar. Shifokor bo'lish niyatida ekanligimni aytgandim, kundaligingni olib kelgin-chi, deb qoldilar. Baholarimdan ko'ngillari to'lmadi chog'i, «a'lo» baholaringga qaraganda «yaxshi»laring ko'proq ekan. Bu biliming bilan boshqa kasbni tanlashning mumkindir, lekin shifokor bo'lolmayсан. Shifokor inson salomatligining posboni degani. Shunday ekan, maqsad sari yetaklovchi yo'lingda puxta bilim bo'lsin, dedilar. Shu-shu baholarimni faqat a'lo qilish uchun astoydil harakat qilyapman.

Aziz tengdoshlarim, sizga ham maslahatim shu - maqsad sari yetaklovchi ilm yo'lidan adashmang.

Umida MIRZAAHMEDOVA,
Farg'ona viloyatidagi, Beshariq tumani, Qum qishlog'idagi
33-maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

UODKOR DO'STLARIM KO'PAYSA...

Har safar «Tong yulduzi»ni o'qiganimda, o'zim tengi bolalarning ijodidan namunalar o'qib, ularga juda havasim keladi. Chunki o'zim ham ijodga qiziqaman. Maktabda do'stlarim juda ko'p. Lekin adabiyotga, ijodga mehr qo'ygan bolalarning dunyoqarashi boshqacha bo'ladi. Ular bilan suhbatlashsam, fikr almashsam, deyman. Shu maqsadda o'z manzilimni yozib yuboryapman. Men bilan do'stlashishni xohlovchilar xat yozsinlar:



Go'zalxon ABDURAHMATOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumani, Qum qishlog'idagi
33 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.


Hayot maktabi

*Xalqimga munosib qiz bo'lay deyman,
Bergan bilimlaring bilan men boyman,
Yurtim xizmatiga doimo shayman,
Mehribonim, hayot maktabim!*

*Bag'ringda ulg'ayib kamolga yetdim,
Ilmning yo'lini men mahkam tutdim,
Bugun quchog'ingdan olishlab ketdim,
Qadrdonim, hayot maktabim!*

Gulnoza NAZARALIYEVA,
Farg'ona viloyatidagi, 33-maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

*Bo'sh o'tirmay,
bosh qotir!*



Katakchalarga shunday hayvonlarning nomini joylashtiringki, oxirgi harfi «N»ga tugasin.

Fazliddin QURBONOV,
Andijon viloyati, Bo'z tumanidagi 13-litseyning 6-sinf o'quvchisi.

OZODALIKOA GAP KO'P EKAN

Qadimda bir mamlakat bo'lgan ekan. Bu yurtning boshqalardan farqi - uning nihoyatda iflosligi, tashlandiq ahvoldaligida ekan. Odamlari dangasa, tanbal ekanlar. Shuning uchun ham bu yerda o'ta xavfli kasallik tarqalibdi. Odamlar birin-ketin qirilib keta boshlashibdi. Kasallik yurt podshosining yakka-yu yolg'iz o'g'lini ham chetlab o'tmabdi. Bundan sarosimaga tushgan shoh mamlakatidagi barcha tabiblarni chaqirib, biror chora topishni, o'g'lini davolashni buyuribdi. Ular harchand urinmasinlar, bu xastalikning davosini topa olmabdilar.

Ularga qo'shni mamlakatda kambag'al bir tabib qiz yashar ekan. Yordam so'rab uning huzuriga borishibdi. Qiz mamlakatdagi ahvolni ko'ribdi-yu, hammasiga tushunibdi. Podshoga yurtda kattakon hashar uyushtirishni, unda o'zi ham, o'g'li ham qatnashishini maslahat beribdi. Yana odamlarning ozodalikka, orastalikka qattiq rioya qilishlari lozimligini tayinlabdi. «Shunda hamma bemorlaringiz tuzalib ketishadi», debdi. Podsho dastlab uning gaplariga ishonqiramabdi. Shunday og'ir kasallikning davosi oddiyligiga shubha qilibdi. Qiz o'z so'zida qat'iy turib olgach, hashar qildirishdan boshqa chora topolmabdi. Mehnat qilib, qoni jo'shib ketgan odamlarning yuzlariga qizillik yuguribdi. Borliqdagi sarishtalikni ko'rib, ko'zlari quvnaabdi. Podshoning o'g'li ham tez kunda oyoqqa turibdi. Bundan quvongan podsho tabib qizni tillolarga ko'mib tashlabdi. Shunday qilib, podsho ham, kambag'al qiz ham murodu maqsadiga yetishibdi.

Qissadan hissa shuki, tozalik bor joyga kasallik yo'lamaydi.

Matlubabonu ASHUROVA,
Farg'ona viloyatidagi, 33-maktabning 6 - sinf o'quvchisi.



TOPISHMOQLAR

Kunduz rizqin terib olar,
Tunda ko'r bo'lib qolar.



Usiz ukam uxlamaydi,
Xarxashadan to'xtamaydi.



Burni bitta,
Yuki mingta.



O'zi juda muloyim,
Sovg'a qilganlar oyim.
Yetaklasang yuradi,
Urishsang, jim turadi.

Go'zal MUSURMONOVA,
Surxondaryo viloyati,
Uzun tumanidagi
1 - o'rta maktabning
6 - «D» sinf o'quvchisi.



TEZ AYTISHLAR

Teshaning tovug'i tomda qaqilladimi?
Tomda Teshaning tovug'i qaqilladimi?

Kungaboqar, kungaboqar,
Kun bo'lmasa kimga boqar.

Bobir boqqa ketdi,
Tohir toqqa ketdi.

MAQOLLARNI DAVOM ETTIRING

Bog'ni boqsang...,
Botmon maxsar

Ilmning ishi...,
Ilmsizning...

Eshik ochiq tursa ham...

Fikrsiz odamdan...

Toshkent shahar, Akmal Ikromov
tumanidagi 14-o'rta maktabning 3- «A»
sinf o'quvchisi **Munisa KOMILOVA**
chizgan ertak qahramonlari ham «Tong
yulduzi»ni o'qishar ekan.
Siz-chi?

Aziz bolajonlar! Siz «Yosh tomoshabinlar teatri» tomoshalarini miriqib tomosha qilasiz, shunday emasmi? Farida opa Umarova ham sizlarga yaxshi tanish. Uni ko'plab teatr, videofilm, shuningdek, sevimli ko'rsatuvingiz «Oqshom ertaklari»da ko'p ko'rgansiz.

Farida opa 1956 yilda Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanida tug'ilgan. Bolaligidan san'atga oshno bo'lib, kelajakda mohir san'atkor bo'lishni ko'ngliga tugib qo'yadi va 1973 yilda Toshkentdagi Mannon Uyg'ur nomidagi teatr va san'at institutining aktyorlik bo'limiga o'qishga kiradi. U yerni tamomlagach, 1978 yildan boshlab hozirgi kungacha «Yosh tomoshabinlar teatri»da faoliyat yurgizib kelmoqdalar. Suhbatimiz bahonasida Farida opa bilan yanada yaqinroq tanishib olasiz.

-Qishloqda tug'ilganim bois bolaligim qir - adirlarda o'tgan. Kechqurunlari onam do'ppi tikib, lapar aytardilar. Maktabdan qaytgach, paxta terishga chiqardik. Paxtazordagi oppoq paxtalarni ko'rib, ilhomim kelar va qo'shiq, laparlar aytishga tushib ketardim.

-Demak, sizning san'atkor bo'lishingizga ko'proq onangiz sababchi ekan-da?

-Albatta. Onam meni dutor chalishimni xohlardilar. Men esa doira chalishga qiziqardim. Mashaqqatli bo'lsa-da, doira chalishni o'rgandim.

-Sahnada o'ynagan ilk rolingiz qaysi?

-Ilk bor Mirzakarim Ismoiliyning «Farg'ona tong otguncha» spektaklida bosh qahramon Hayot obrazini yaratganman.

-Sahnada rol ijro etayotgan aktyor so'zlari yodidan chiqib, noqulay ahvolga tushib qolsa, vaziyatdan qanday chiqib ketadi?

-Avvalo aktyor o'z qahramonini yaratishdan oldin unga ruhan o'zini tayyorlashi kerak. Agar u o'z roliga puxta tayyorgarlik ko'rmagan bo'lsa, albatta siz aytgan ahvolga tushib qolishi tabiiy. Agar aktyor sahnada bexosdan qoqilib ketsa ham, mavzudan chetga

chiqmagan holda uning partnyori ham so'z topib, ana shu vaziyatdan chiqib keta olishlari kerak. Shunda bu hol tomoshabinga tabiiydek tuyuladi.

-Farzandlaringiz ham sizning sohangizga qiziqishadimi?

-Yo'q, ikkita o'g'lim bor. Katta o'g'lim rassomchilik institutida o'qiydi. Kichigi hali maktabga boradi.

-Hayotingizda qiziqarli voqea bo'lganmi?

-Yaqinda 1-shahar shifoxonasida suratga olish ishlari ketayotgandi. Men kasal ona obrazini yaratib berishim kerak edi. Meni o'shanda nosilkaga solishdi. Shunda rejissyorimiz, siz shu yerda yota turing, biz ichkariga chiroqlarni o'rnatib olgach, sizni kiritamiz, dedi. Shunday qilib, hamma

ichkariga kirib ketdi. Yo'lakda bir o'zim qoldim. Bilasizmi, bir kun oldin mehmon kutib rosa charchaganimdanmi, yuzimdagi grim bilan uxlab qolibman. Shu paytda tepamga ikki ayol kelib: «Voy bechora, aktyorlar ham kasal bo'lishar ekan-da, yana bir o'zini qoldirib ketishibdi»-deb shifokorlarni chaqirib kelishibdi.


-Qishki ta'tilda biz bolalar uchun qanday spektakllar qo'yishni rejalashtiryapsizlar?

-Qishki ta'tilda katta Archa bayrami o'tkaziladi. Yana bolalar uchun «Sehrlangan shahzoda», «Sehrlil hujra» va «Shum bola» asarlarini sahnalashtirish rejamizda bor.

-«Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilariga tilaklaringiz.

-Ular doimo sog' bo'lishsin. Teatrimizga tashrif buyurib, biz sahnalashtirgan tomoshalarni ko'rib, o'zlariga xulosa chiqara olsalar, biz xursand bo'lardik. Yana ularning komil yurt uchun biror foydali ish qiladigan mard inson bo'lib yetishishlariga tilakdoshman.

Kamola ERGASH qizi suhbatlashdi.



DIQQAT, E'OLON!!!

«TONG YULDUZI» gazetasi va «TUFIN» qo'shma korxonasi hamkorlikda Siz bolajonlarni shirinliklar bilan mehmon qilmoqchi. Buning uchun buvi va buvajonlaringizdan qadimda qanday shirinliklar tayyorlashgan, uning yo'l-yo'riqlari, sharq qandolatchiligiga asos solinishida qanday rivoyat va hikoyatlar ma'lumligi haqida bilib oling-da, bizga yozib yuboring. Eng yaxshi maqola, ertak, rivoyat, va shirinpalzlarning laparlari «PARVARDA YEGANMISIZ?» rukni ostida gazetamizda e'lon qilinadi. G'oliblarga sirli sovg'amiz bor.

ENIGA:

8.1402 yil 20 iyulda Anqara shahrida bo'lgan urushda Amir Temur kim bilan jang qilgan? 10. Musiqadagi 3-notaning nomi. 11. Hukm chiqaruvchi davlat organi. 13. Adabiy... 14. Duradgor asbobi. 19. Hasharot. 20. Raqam. 21. Uya. 23. Avto rusumi. 26. Yor-yor. 30. Shoir Zulfia sazovor bo'lgan xalqaro mukofot nomi. 33. Temuriylar sulolasining so'nggi vakili. 34. Kelinni kelganda ko'r,...ini yoyganda ko'r. 37. Ertak qahramoni. 38. Tole. 39. Italiya poytaxti.

BO'YIGA:

1. Hayron. 2. Kimyoviy unsur. 3. Qadimda Xuroson poytaxti. 4. Hozir biz foydalanayotgan kalendar ixtirochisining ismi. 5. Germaniyani «temir va kon» bilan birlashtirgan shaxs. 6. O'zbekistondan oqib o'tib, Orolga quyiluvchi daryoning nomi arabchada «Jayxun» deb ataladi. 7. Shuhrat. 9. Suriya poytaxti. 12. Biron narsa ustida ishlamoq. 13. Shoh va xonlarning o'rni. 14. Hukmdorlar qarorgohi (qadimda). 15. Osiyodagi shahar. 16. Soyning «ukasi». 17. Islom ...i. 23. Erkaklar kiyimi. 24. Yalinib so'ramoq. 25. Oz. 27. Quruvchi. 28. Ko'rsatgich olmoshi. 29. Janob... 31. Taxmin. 32. Estrada yulduzining ismi. 35. ...lar yaxshilikka yetaklar. 36. Urf.

Tuzuvchi: Nigora XUSNIDDIN qizi.



TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Bosh muharrir
Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 10519
Korxona manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № Г - 21
Gazetani
Otabek
ESHCHANOV
sahifaladi.
Navbatchi:
Jamila
ERDONOVA

Bizning elektron
pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks:
(99871) 144-37-24